

“SAHIHI BUXORIY” VA “ADAB AL-MUFRAD” ASARLARI ASOSIDA ISLOMDA SHE’RIYATGA MUNOSABATINING ADABIY TAHLILI

Ermatova Zulfiya Abdug‘aniyevna

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Filologiya va tillarni o‘qitish: arab tili

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Islom madaniyati va adabiyotshunosligida o‘ta muhim o‘rin tutgan she’riyat hamda shoirlik maqomi masalasi tadqiq etiladi. Tadqiqotning bosh manbasi sifatida hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning shoh asari bo‘lmish “al-Jome as-Sahih” hamda uning ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag‘ishlangan fundamental asari “Adab al-mufrad” dagi rivoyatlar tanlangan. Maqolada Rasululloh (s.a.v.) va sahobai kiromlarning she’riyatga bo‘lgan munosabatlari matnshunoslik hamda sotsiologiyaviy tahlil metodlari yordamida o‘rganiladi. Manbalardagi hadis va asar elementlari tizimlashtirilib, Islom dini badiiy so‘zni kategorik ravishda inkor etmagani, aksincha, uning estetik va ijtimoiy yo‘nalishini axloqiy mezonlar asosida transformatsiya qilgani ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Imom Buxoriy, “Sahihi Buxoriy”, “Adab al-mufrad”, she’riyat, johiliyat, bayon san’ati, Hasan ibn Sobit (r.a.).

Insoniyat tarixining har bir ijtimoiy-madaniy rivojlanish davrida badiiy so‘z va adabiyot jamiyat mafkurasini shakllantiruvchi, ommani muayyan g‘oyalar atrofida birlashtiruvchi yoki parokanda qiluvchi eng ta’sirchan dastak vazifasini o‘tab kelgan. Arab xalqlari va Islom madaniyati kontekstida ushbu vazifa to‘liqligicha she’riyat zimmasiga tushgan edi. Islom dinining kirib kelishi dunyo tamadduni tarixida nafaqat e’tiqodiy va huquqiy islohotlarni, balki adabiy-estetik qarashlarning mutloqo yangi tizimini ham boshlab berdi. Vahiyning, ya’ni Qur’oni Karimning oliy va tengsiz mo’jizaviy balog‘ati fonida o’sha davr jamiyatida Islom sharoitida she’riyatning shar’iy maqomi qanday bo‘lishi hamda shoirning ijtimoiy faoliyati qaysi mezonlar asosida baholanishi borasidagi jiddiy savollar yuzaga keldi. Ushbu savollarga to‘g‘ri va tizimli javob topishda hadisshunoslik maktabining eng mo‘tabar manbalari, xususan, Imom Buxoriyning “Al-Jome as-sahih” hamda “Adab al-mufrad” asarlari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Aksar hollarda Islom dinini san’at va adabiyotga salbiy munosabatda bo‘lgan, shoirlarni mutloq qoralagan ta’limot sifatida ko‘rsatishga urinishlar uchrab turadi. Ushbu ilmiy tadqiqotning dolzarbligi ham aynan Imom Buxoriy to‘plagan ishonchli va asar silsilalariga ega bo‘lgan tarixiy rivoyatlar yordamida yuqoridagi yangilash qarashlarni ilmiy rad etish, Islomning she’riyatga bo‘lgan haqiqiy, muvozanatli va hikmatga asoslangan yondashuvini ko‘rsatib

berishdan iboratdir.

Islom dini she'riyatga qanday munosabatda bo'lganini chuqurroq anglash uchun dastlab uning Islomdan oldingi, ya'ni johiliyat davridagi ijtimoiy-siyosiy hamda funksional o'rnini vizualizatsiya qilish lozim. Arabiston yarim orolining quruq va qat'iy iqlimiy, qabilaviy tuzilmaga ega bo'lgan sharoitida shoir shunchaki estetik lazzat ulashuvchi ijodkor emas, balki strategik qurol va qabilaning axborot markazi edi. Johiliyat davrida ijod qilgan shoirlar asosan uchta yo'nalishda faoliyat yuritganlar bo'lib, bular o'z qabilasining soxta yoki haqiqiy harbiy g'alabalari, nasabining tozaligi va boyligini bo'rttirib madh etuvchi faxr, dushman qabilani, uning a'zolarini, ayollarining sha'nini yerga urish, ularni jamiyat oldida sharmanda qilish orqali psixologik bosim o'tkazuvchi hijo hamda axloqiy me'yorlardan yiroq bo'lgan, shahvoniy va nafsiy hislarni qo'zg'atuvchi ayollar tasviri va ichkilikbozlik madhiga asoslangan tashbib va g'azal janrlari edi. O'sha davrda kuchli bir shoirning birgina satri qabilalar o'rtasida o'ttiz yillik qonli urushlarni boshlab berishi yoki aksincha, eng qiyin vaziyatda sulh tuzishga sabab bo'lishi mumkin edi. Ya'ni, badiiy so'z jamiyatda mutloq gegemonlikka ega bo'lib, u ko'pincha adolatga emas, balki asabiyatga, ya'ni ko'r-ko'rona qabilachilik mutaassibligiga xizmat qilardi. Islom dini mana shu qudratli axborot qurolini butunlay yo'q qilishni maqsad qilmadi, chunki bu inson tabiatidagi iqtidorga qarshi chiqish bo'lur edi. Islomning maqsadi ushbu vositani jaholat botqog'idan olib chiqib, haqiqat, axloq va adolat xizmatiga bo'ysundirish, ya'ni uni tubdan transformatsiya qilish bo'ldi.

Islom dushmanlari va ayrim sharqshunoslar tomonidan Islomning she'riyatga munosabati salbiy bo'lgan deb iddao qilinishiga asosan Shuaro surasining shoirlarga yo'ldan ozganlar ergashishi, ularning har vodiya daydishlari va o'zlari qilmagan narsalarni gapirishlari bayon qilingan oyatlari sabab qilib ko'rsatiladi. Biroq, bu oyalarni tizimli ravishda to'liq tushunish va to'g'ri hukm chiqarishda sunnat manbalariga murojaat qilish zarur. Imom Buxoriy o'zining "Adab al-mufrad" asaridagi shoirlarga ergashmoq haqidagi maxsus bobda ulug' sahobiy Abdulloh ibn Abbos (r.a.)dan juda muhim rivoyatni keltiradi. Mazkur kitobda 894-hadisda bayon qilinishicha, Ibn Abbos (r.a.) Alloh taoloning shoirlarni tanqid qiluvchi ushbu oyatlari tushgach, unga darhol istisno oyati ham tushganini aytib, Shuaro surasining keyingi oyatini o'qiydi. Ibn Abbos (r.a.) tomonidan tilga olingan va hukmni mutloq taqiqdand ijobiy rag'batga o'zgartirgan o'sha istisno oyatida iymon keltirgan, solih amallarni qilgan, Allohni ko'p zikr qilgan va zulmga uchraganlaridan keyin g'olib kelgan shoirlar ilohiy qoralashdan mutloq mustasno qilinganligi ta'kidlanadi. Ushbu ilmiy kontekst shuni isbotlaydiki, Islom she'riyatni yaxlit bir san'at turi sifatida qoralamaydi, balki shaxsning e'tiqodi va maqsadidan kelib chiqib tahlil qiladi. Agar shoir iymonli bo'lsa, solih amalni ko'zlasa va so'z san'ati orqali zulmga qarshi haqiqatni himoya qilsa, u har doim rag'batlantiriladi.

Badiiy nutq va uning inson ruhiyatiga ko'rsatadigan chuqur ta'siri shaxsan Payg'ambarimiz (s.a.v.) tomonidan ham yuksak baholangan bo'lib, Adab al-mufrad asarining bayonning jozibador, sehrli usuli haqidagi bobida keltirilgan 896-hadis so'z san'atining qanchalik ulkan kinetik kuchga ega ekanligini anglatadi. Ibn Abbosdan rivoyat qilinishicha, bir a'robiy Rasululloh (s.a.v.)ning oldilariga kelib, ochiq va nihoyatda go'zal jumlar bilan so'zlaganida, Payg'ambarimiz (s.a.v.) uning gaplarini yoqtirib, bayon uslubida ham joziba va sehr borligini, ba'zi she'rlar esa sof hikmat ekanligini marhamat qiladilar. Bu yerda Rasululloh (s.a.v.) ishlatgan ibora so'z mantiqi va ritorikaning inson ongi hamda hissiyotlarini xuddi sehr kabi rom etish xususiyatiga ega ekanini tasdiqlaydi. Davomidan esa ba'zi she'rlarning hikmat ekanligi ta'kidlanishi she'riyatni ijobiy va ma'rifiy maqsadlarda qo'llash nafaqat joiz, balki jamiyat tafakkurini uyg'otishda eng samarali yo'llardan biri ekanligini ko'rsatadi. Demak, badiiy ifodaning go'zalligi, ohangdorligi va jozibasi inson ma'naviyatini yuksaltirishga, uni ezgulikka yo'naltirishga xizmat qilsa, Islom uni yuksak darajada e'tirof etadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Badiiy so'zning, xususan, she'riyatning shar'iy va axloqiy maqomini belgilashda Islom ta'limoti mutloq man etish yoki cheksiz erkinlik berish yo'lidan bormagan, balki har bir ijod namunasini uning mohiyati va jamiyatga ko'rsatadigan ta'siriga qarab baholagan. Buni buyuk muhaddis Imom Buxoriyning "Adab al-mufrad" asarida keltirilgan tarixiy lavhalar va sahobalarning hayotiy tajribalari yaqqol isbotlaydi. Chunonchi, asardagi 880-rivoyatda keltirilishicha, Xolid ibn Kayson ulug' sahobiy Abdulloh ibn Umarning huzurlariga borganida, u yerda hozir bo'lgan Yos ibn Haysama ismli ijodkor: "Ey, Foruqning o'g'illari! She'rlarimdan o'qib beraymi?" deb ruxsat so'raydi. Shunda Abdulloh ibn Umar unga: "Ha, faqat yaxshisini o'qi", deya shart qo'yadilar va she'rning o'zlariga yoqmaydigan, ya'ni axloqiy me'yordan chiquvchi joyi kelganda qat'iy ohangda: "Bas qil!" deb uni to'xtatadilar. Ushbu voqelik shuni ko'rsatadiki, sahobalar maktabi she'riyatni butunlay rad etishmagan, balki uning mag'ziga va ma'nosiga e'tibor qaratishgan. Agar she'rda Alloh taoloning go'zal sifatleri, insonga berilgan beqiyos ne'matlar, jamiyatni yaxshilikka undash hamda taqvodorlarning yuksak vasflari kuylangan bo'lsa, bunday she'rlar har doim maqbul va sevimli hisoblangan. Aksincha, agar she'riyat kimnidir nohaq hajv qilish, kamsitish va masxara etish yoxud ayollarning jismoniy madhiga bag'ishlangan fahsh elementlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, Islom bunday ijod namunalarini qat'iy harom va zararli deb e'lon qilgan.

She'riyatning inson hayoti va safarlardagi o'rni, uning ma'naviy hordiq hamda to'g'ri so'zlash vositasi ekanligi borasida Mutarrifdan naql qilingan 881-hadis ham e'tiborga molikdir. U kishi sahobiy Imron ibn Husaynga Kufadan Basragacha bo'lgan uzoq yo'lda hamroh bo'lganini, yo'l asnosida qaysi joyda to'xtab dam olsalar, Imron unga she'r o'qib berganini eslaydi. Shu bilan birga, Imron ibn Husayn: "Kinoyali

soʻzlarda yolgʻondan qochishlik bor”, deb taʼkidlaydi. Bu esa badiiy tildagi oʻxshatishlar, ramzlar va metaforalar insonni toʻgʻridan-toʻgʻri yolgʻon gapirishdan asrashini, sheʼriy uslub orqali haqiqatni goʻzal shaklda yetkazish mumkinligini anglatadi. Ubay ibn Kaʼbdan rivoyat qilingan va Rasululloh (s.a.v.)ning: “Sheʼrlarning hikmatlisi ham bor”, degan soʻzlari bilan mustahkamlangan ushbu tamoyil adabiyotning maʼrifiy funksiyasini yuzaga chiqaradi. Hatto Yaratganga boʻlgan muhabbat va hamd-u sanolar ham sheʼriy shaklda izhor etilganda maʼqullangan. Asvad ibn Sariʼ oʻzining 883- va 892-hadislarda takrorlangan rivoyatida Rasululloh (s.a.v.)ga murojaat qilib: “Yo Rasulalloh, men Parvardigorimni goʻzal sifatlar bilan maqtab madhiya bitdim, uni oʻqib bersam maylimi?” deb soʻraganida, u zot uning bu ishini inkor qilmay, aksincha: “Parvardigor hamdni yaxshi koʻradi”, deb marhamat qilganlar va uning ijodiga keng yoʻl ochib berganlar.

Biroq, sheʼriyat bilan shugʻullanishning ham oʻz chegaralari va mezonlari bor boʻlib, bu borada kelgan ogohlantirishlarni toʻgʻri tushunish hadisshunoslikda katta ahamiyatga ega. Abu Hurayra (r.a.) va Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilingan: “Kishining qorni jarohat bilan yiringga toʻlishi sheʼr bilan toʻlishidan yaxshiroqdir”, degan hadis dastlab nihoyatda qatʼiy va qoʻrqinchli tuyulishi mumkin. Ammo ushbu hadisning asl mohiyati va kelib chiqish sababi (asbabul-vurud) haqida moʻminlar onasi Hazrat Oysha (r.a.) juda muhim ilmiy aniqlik kiritganlar. Boshqa sahobalar Abu Hurayraning ushbu soʻzini yetkazishganda, Oysha onamiz: “Abu Hurayraga Xudo rahm qilsin, hadisning boshini yodlabdi-yu, oxirini yod olmabdi”, deya vaziyatni oydinlashtirganlar. Maʼlum boʻlishicha, Islomning ilk davrida Makka mushriklari Rasululloh (s.a.v.)ni va yangi shakllanayotgan musulmon jamiyatini obroʻsizlantirish uchun maxsus hajviy va boʻhton sheʼrlar toʻqishgan. Aynan oʻsha vaziyatda Paygʻambarimiz (s.a.v.): “Sizlardan biringizning ichi mana shunday hajviy, kufrga toʻla sheʼrlar bilan toʻlganidan koʻra, yiringga toʻlgani yaxshiroqdir”, deb aytgan edilar. Ulugʻ tilshunos va muhaddis olim Tabariy ham ushbu maʼnoni qoʻllab-quvvatlab, agar hadisdagi ogohlantirish umuman barcha sheʼrlarga tegishli boʻlganida edi, unda “toʻlmoq” lafzi ishlatilmagan boʻlardi, chunki Rasulullohni hajv qilish va dinga boʻhton otishning ozi ham, koʻpi ham barobar kufrdir, degan xulosani beradi. Demak, hadisdagi “toʻlmoq” kalimasi inson borligʻini butunlay sheʼrga baxsh etib, farz ibodatlardan, Qurʼon tilovatidan va dunyoviy-diniy ilmlardan uzilib qolish darajasidagi gʻofillikni ifodalaydi.

Axborot makonida Islomning shaʼnini himoya qilish esa nafaqat joiz, balki oliy darajadagi xizmat sanalgan. Shuning uchun ham Hazrat Oysha (r.a.) naql qilgan 886-hadisdan mardona bir sahna bayon etiladi: shoir Hasan ibn Sobit (r.a.) Rasululloh (s.a.v.)ning huzurlariga kelib, mushriklarning boʻhtonlariga qarshi ularni sheʼr bilan hajv qilishga va dinga raddiya berishga ruxsat soʻraydi. Rasululloh (s.a.v.) uning iqtidoriga ishonsalar-da, ehtiyotkorlik yuzasidan: “Mening nasabimni mushriklarning

hajviyalaridan qanday holi qilasan, axir ular bilan mening qon-qarindoshligim bor-ku?” deb so‘raydilar. Shunda Hasan ibn Sobit (r.a.) o‘zining so‘z ustasi ekanligini ko‘rsatib: “Xamirdan qil sug‘urgandek, ularning ichidan sizni mutloq toza va daxlsiz qilib tortib olaman, sizning pok nomingizga aslo zarar yetkazmay dushmanlarga zarba beraman”, deb javob beradi. Hasan (r.a.) o‘z so‘zining ustidan chiqadi va Islom bayrog‘ini adabiy maydonda baland ko‘taradi. Shu sababli keyinchalik ba’zi kishilar Hazrat Oysha onamizning huzurlarida Hasan ibn Sobitni tanqid qilmoqchi yoki so‘kmoqchi bo‘lishganida, onamiz ularni darhol to‘xtatib: “Uni so‘kmangiz, chunki u Rasululloh (s.a.v.)ni g‘oyaviy va adabiy tomondan dushmanlardan mudofaa qilardi”, deya uning jamiyat oldidagi yuksak xizmatlarini yodga olganlar.

Ushbu ma‘lumotlarni umumlashtirib, Rasululloh (s.a.v.)ning o‘zlari qoldirgan eng mukammal mezonni Abdulloh ibn Amrdan rivoyat qilingan 889-hadis orqali ko‘rishimiz mumkin. Unda Rasululloh (s.a.v.): “She’r so‘zining qandayligiga qarab belgilanadi: yaxshisi yaxshi so‘z kabidir, yomon va qabihi esa axloqsiz so‘z kabidir”, deb qat’iy qoida qo‘yadilar. Ushbu oltin qoidani Urva ham Hazrat Oysha (r.a.) onamizdan: “She’rning yaxshisi ham bo‘ladi, axloqsizi ham. Yaxshisini oling, axloqsizlarini tashlang”, degan sodda va lofoniy bo‘lmagan shaklda naql qiladi. Hatto Islom kelishidan oldin o‘tgan, ammo o‘z she’rlarida tavhid, qayta tirilish va oxirat mavzularini kuylagan Umayya ibn Abus-Salt kabi shoirlar haqida ham Rasululloh (s.a.v.): “Umayyaning she’rlaridan uning yaqinda musulmon bo‘lishini anglasa bo‘ladi”, deb ijobiy fikr bildirganlar, ya’ni uning she’ridagi iymon uchqunlarini e’tirof etganlar.

She’riyat va so‘z san’atining jamiyat madaniyatini shakllantirishdagi, davlat arboblari voyaga yetkazishdagi o‘rni keyingi davr xalifalari va hukmdorlari tomonidan ham chuqur anglangan. Bunga misol qilib Amr ibn Salomdan rivoyat qilingan tarixiy voqeani keltirish mumkin. Umaviylar xalifasi Abdulmalik ibn Marvon o‘z farzandlariga o‘sha davrning eng yetuk olimi va tarbiyachisi bo‘lmish Shabiyni muallim qilib tayyinlar ekan, unga davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan quyidagi muhim ko‘rsatmalarni beradi: “Ularga she’r va uning san’atini o‘rgatginki, el ichida so‘z va notiqlik borasida mashhur hamda sobit bo‘lsinlar; ularga go’sht berginki, jismonan baquvvat va yuraklari jasur bo‘lsin; ularning sochlarini olib turginki, bo‘yinlari mustahkam va qomati tik bo‘lsin; va eng muhimi, ularni jamiyatning eng olijanob va sharaflari yonida o‘tqazginki, toki ular kelajakda xalq rahbarlari sifatida har qanday siyosiy va ilmiy munozaralarda erkin, asosli raddiyalar bera olsinlar”. Ushbu tarixiy pedagogik ko‘rsatma she’riyat va adabiyot shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki yetuk shaxsiyatni, qat’iyatli yetakchilarni va yuksak tafakkur egalarini tarbiyalovchi strategik fan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Imom Buxoriyning ham “Sahihi Buxoriy” asarida, ham “Adab al-mufrad” kitobida tizimli ravishda jamlagan hadislar Islom

dinining san'atga, badiiy ijodga va she'riyatga bo'lgan keng, bag'rikeng hamda adolatli munosabatini to'liq ochib beradi. Islom inson qalbini, uning his-tuyg'ularini va so'z go'zalligini qadrlaydi, faqatgina ushbu buyuk ne'matning vayronkor g'oyalarga, yolg'on va axloqsizlikka xizmat qilishiga yo'l qo'ymaydi. Bugungi kunda ham adabiyot, kino, teatr va barcha zamonaviy media vositalari aynan mana shu nabaviy ta'limot asosida – axloqni yuksaltirish, adolatni qaror toptirish va ma'rifatni yoyish maqsadida qo'llanilsa, u jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi eng qudratli omil bo'lib xizmat qilishi muqarrardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome as-sahih (Sahihul Buxoriy). Kitob al-Adab. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2002. – 450 b.
2. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad / Tarjimon va sharh muallifi: Sh. Musaffo. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – 512 b.
3. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Fathul Boriy bi-sharh Sahih al-Buxoriy. 10-juz, Kitob al-Adab sharhi. – Qohira: Dor al-Hadis, 2004. – 610 b.
4. Qur'oni Karim va ma'nolarining tarjimasi. Shuaro surasi, 224-227-oyatlar / Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – 640 b.
5. Zuhayr, K. Al-Qasida al-Muhammadiyya va devoni Ka'b ibn Zuhayr. – Bayrut: Dor al-Fikr, 1998. – 120 b.